

## TRANSPORTLARDA TASHISHNI TASHKIL ETISHDA LOGISTIK TAMOYILLARDAN FOYDALANISH

**Karimov Akmal Akbarovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti,  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

### ANNOTATSIYA

*Maqolada tashishni tashkil etishda logistik tamoyillardan foydalansh hamda avtomobil yo'llaridagi infratuzilmalarning harakat xavfsizligini ta'minlashga oid ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Infratuzilmalar, avtomobil yo'llari, yo'lar tarmog'i, yo'l belgilari, aqlli svetaforlar, harakatni boshqarish, logistika, tashish.*

**Kirish.** Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlash asosiy dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Oxirgi yillar ichida sodir etilgan yo'l-transport hodisalarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularning o'rtacha bir yillik soni ortib ketayotganligi, buning natijasida esa respublikamiz fuqarolaridan ikki ming kishi halok bo'lishi va 10-12 ming inson tan jarohati olishi qayd etilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'l tarmoqlarida va avtotransport korxonalarida harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ishlarni asosan sohaga aloqador tashkilotlar birgalikda bajariladi.

Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini tashkil etish bugungi kundagi muhim muammolardan biriga aylanib bormoqda. Avtomobilning atrof-muhitga yetkazadigan zararlari miqdori kundan-kunga oshib bormoqda. Avtomobil yo'llarida sodir etilayotgan yo'l-transport hodisalari natijasida ko'plab odamlarning jabr ko'rishlari va hayotdan ko'z yumishlaridir. Yo'l-transport hodisalarining oldini olish uchun ko'rilayotgan qator tadbirlarga qaramasdan, ularning miqdori kamayishiga erishib bo'lmayapti.

Avtomobil yo'llarida harakat tartibsiz ravishda vujudga keladi. Har bir haydovchi o'ziga qulay harakat tartibini tanlaydi hamda o'zi tanlagan harakat tartibining boshqa harakat qatnashchilariga ta'siri bilan hisoblashmaydi. Shuningdek, turli rusumli avtomobillarning har xil dinamik sifati harakat tartibiga ta'sir qilishi tabiiy hol hisoblanadi. Yo'l harakatida avtomobillarning o'zaro ta'siri harakat miqdori qancha ko'p bo'lsa, shuncha orta boradi. Avtomobil yo'llardagi infratuzilmalarni yaxshilash harakat xavfsizligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Avtomobil yo'llaridagi piyodalar o'tish yo'lasi, piyodalarning yer osti o'tish yo'lasi, aqlli

svetaforlar, yo‘l chiziqlarining tiniq ko‘rinib turishi, to‘xtab turish uchun yo‘l chetidan yetarlicha yo‘l qismining mavjudligi, sekinlashish va tezlashish uchun qo‘shimcha yo‘l to‘shmalarining qurilishi, qayrilib olishdagi qulayliklar, yo‘l chetidagi texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash ustaxonalarining mavjudligi, avtomobillarga yoqilg‘i quyish shahobchalrining mavjudligi (qulay masofalarda) va undagi qulayliklar (haydovchilar uchun barcha qulayliklar), shuningdek shunga o‘xshagan turli xil qulayliklar avtomobil yo‘llaridagi infratuzilmalar tarkibiga kiritiladi. Avtomobil yo‘llarida harakatni tashkil qilishning samarali usullaridan biri yo‘l belgi chiziqlarini ishlatishdir. Yo‘l belgi chiziqlarini ishlatish yo‘l-transport hodisalari sonining 30-50% kamayishiga olib keladi. Avtomobil yo‘llarida yo‘l to‘siqlar transport vositalarining, piyodalarning harakatini tartibga solish va yo‘l-transport hodisalarining oldini olish hamda ularning og‘irlik darajasini pasaytirish uchun o‘rnatiladi. Svetoforlar yorug‘lik signali beruvchi asbob bo‘lib, ular yo‘lning ma‘lum uchastkalaridan transport vositalari o‘tishini boshqarib turishda ishlatiladi.

Hozirgi vaqtda avtomobil yo‘llarida harakatni boshqarish uchun ko‘proq texnik vositalar va yangi usullar qo‘llanilmoqda. Bunga harakatni boshqarishning avtomatik tizimi kiradi. Harakatni boshqarishning avtomatik tizimi yordamida yo‘l sharoitlarini va transport oqimining holatini hisobga olgan holda tezkor ravishda iqtisodiy qulay harakatni boshqarish yo‘llarini tanlash mumkin bo‘ladi.

Yo‘l qoplamalarining ilashish xususiyatlari ma‘lum darajada avtomobilning sekinlashish yoki to‘xtash yo‘li uzunligini aniqlaydi, uning ustivorligi va boshqarilishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi, shuning uchun harakat xavfsizligiga ta‘sir etuvchi muxim kattalik hisoblanadi.

«Avtomobil transportida yo‘lovchilar tashishni tashkil etish qoidalari»ga ko‘ra avtobuslarda yo‘lovchilar tashishda yo‘llar quyidagi asosiy shart-sharoitlarga javob berishi lozim:

- yo‘lning transport qatnovi qismi yaxshi bo‘lib, uning kengligi qarama-qarshi yo‘nalishlarda avtomobillarning yetarli darajada xavf-xatarsiz harakatlanishiga imkon berishi;
- avtobus sigimidan maksimal foydalanilganda o‘qqa tushuvchi massa marshrutdagi ko‘priklar uchun joiz ogirlikdan ortiq bo‘lmasligi;
- temir yo‘l kesishmalaridan avtobuslarning o‘tishi temir yo‘l transporti boshqarmasi bilan kelishilishi, bunda avtomobil yo‘llari va ko‘chalarning temir yo‘llar bilan kesishuvi qurilish meyorlari va qoidalari hamda temir yo‘l transporti talablariga mos kelishi zarur;
- harakat uchun xavfli bo‘lgan barcha joylar, zarur agohlantiruvchi belgi va to‘siqlar bilan jihozlanishi;

- avtobus marshrutlarining boshlanish va oxirgi joylarida «choʻntaklar» va yoʻlovchilar uchun maxsus maydonchalar boʻlishi.

Har bir marshrutdagi yoʻl sharoitlari yil davomida kamida ikki marta maxsus komissiya bilan tekshirib chiqilishi zarur. Bunday komissiyaga viloyatlar, Qoraqolpagʻiston va Toshkent shahar avtomobillarda tashish uyushmalari yoʻlovchilar xizmati xodimi, Davlat avtomobil nazorati (DAN) yoʻl xizmati xodimi va xokimiyat xodimlari kiritiladi.


Avtomobil transporti yoʻlovchilar tashish marshrutlarining qatnov sharoitlariga mosligini nazorat etishda quyidagilarga alohida ahamiyat berilishi lozim.

Yoʻl qoplamasida avtomobil oʻz boshqaruvini yoʻqotishga va sinashga olib keluvchi chuqurlar va choʻkib qolgan notekis joylar boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik zarur.

Takomillashtirilgan qoplamali va qatnov qismi kengligi 7 m dan ortiq boʻlgan yoʻllarda transport vositalari harakatini tartibga solish maqsadida yoʻllarning qatnov qismi va oʻtish joylariga chiziladigan belgilar aniq va yaxshi koʻrinishi lozim. Bunday belgilashlar «Yoʻl harakati qoidalari» talablariga binoan hamda «Avtomobil yoʻllari va shahar koʻchalari qatnov qismiga belgilar qoʻyish yoʻriqnomasi»ga rioya qilingan holda bajariladi.

Barcha yoʻllar uzoq masofadan ham yaxshi koʻrinuvchi yoʻl belgilari bilan jihozlanishi lozim.

### Texnik tavsifga koʻra yoʻllar 5 toifaga boʻlinadi



Yoʻllarning taʼmirlanuvchi boʻlagi standart toʻsiq, koʻchma ustunchalar va ogohlantiruvchi «Taʼmirlash ishlari» belgilar bilan oʻralgan boʻlishi shart. Bunday belgilar yoʻlning har ikkila tomonidan ham ikki joyda: birinchisi taʼmir joyidan 150-250 m (shaharlar va aholi punktlarida 50 m) masofada. Ikkinchisi esa taʼmirlanuvchi boʻlakning oʻzida qoʻyilishi lozim. qarongi tushishi bilan bunday joylarda qizil signal fonari yoqib qoʻyilishi kerak. Ishlamayotgan yoʻl mashinalari yoʻlning qatnov qismida qoldirilmasligi lozim.

Logistik tizim - u yoki bu logistika vazifasi va operatsiyalarni bajaruvchi teskari aloqaga moslashtirilgan tizimdir. U qoidaga ko'ra, bir necha tizimlardan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqaga ega. Barcha transport majmuasi rnashtabida yuk oqimlarini yagona markazlashgan logistik tizim asosida boshqarishni tashkil etish inter va multimodal tashish turlarini yanada samarali amalga oshirishga hamda yagona optimallashtirilgan transport konveyerini yaratishga imkon beradi.

Logistik tizim asosida ekspeditorlik, stividorlik va boshqa yordamchi operatsiyalar markazlashadi, yuqori malakali transport, operatorlik va boshqa kompaniyalar vujudga keladi va mamlakat transport majmuasi infrastrukturasi ratsional rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi.

Transportni hududiy boshqarish - logistik tizimi konsepsiyasi va ishining texnologiyasi ishlab chiqilsa, quyidagilarni amalga oshirish mumkin bo'ladi: yuk oqimlarini boshqarish; temir yo'lda yuk tashuvchilar va boshqa transport turlarining texnikirnkoniya talarini bog'lash;

yuklarni bir transport turidan ikkinchi transport turiga qayta ortish va vagonlarni turib qolish vaqtini tejash va yuklarni ortish-tushirish vaqtini tejash va samarali ta'minlash;

multimodal tashishlarda barcha transport turlari qatnashchilarining manfaatlari ko'zlanadi;

hududiy muammolar e'tiborga olinadi.

Yuqoridagi masalalarning hal qilinishida logistik markaz yuklangan vagonlarning kelishini boshqa transport turlari kelishi vaqtiga muvofiqlashtiradi.

- **Logistik harajatlar – bu logistik muomalalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar**



1) Tayyor mahsulotni omborlarga joylash

2) Yuklash

3) Xodimlarga ish haqi

4) Jixozlarga, binolarga bo'lgan xarajatlar

5) Buyurtmalar haqida ma'lumotlarni uzatish va saqlash.

Logistikaning rivojlanishi tashkiliy tuzilmalarning o'zgarishiga: ulami amalga oshirish sharoitiga moslashuvi, ishlab chiqarish bo'g'inidagi tijorat xizmatlari ishlarini takomillashtirishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi, tijorat-vositachilik firmalari bo'limlarining ixtisoslashishiga ko'maklashadi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, tovarlar harakatini vositachilarning omborxonasi, ta'minot va sotish xizmati, sanoat korxonalarini va transport tashkilotlari omborlari va bazalari orqali integratsiyalashtirilgan boshqaruvining rivojlanishi oqibatida maqsadga muvofiq bo'lmagan qaytadan omborxonalarga tashishlar 1,5-2 barobarga qisqaradi. Tovar harakati kanalining eng ma'qul tanlovini aniqlashda materiallar barcha tur va o'lchamlariga buyurtmalarining zarurligi, ulg'ji vositachilar ishining mavjudligi, xarakteri va bir qator boshqa shartlarini hisobga olish kerak. Hisob-kitoblarni soddalashtirish uchun ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Avtomobil yo'llardagi infratuzilmaning rivojlanishi va yo'llarning texnik holati talab darajasida bo'lishi yo'l transport hodisalarining kamayishining muhim omili hisoblanadi. Taklif etilgan logistik markaz konsepsiyalari yaqin vaqtda ortilgan moddiy oqimlarni o'tkazish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga imkon beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Насиров, И. З., Косимов, И. С., & Каримов, А. А. (2017). Морфологик тахлил" методини қўллаб ўт олдириш свечасини такомиллаштириш. *Инновацион технологиялар*, 3, 27-74.
2. Mamatov F. M., Karimov A. A. Potato digger with latticed plowshares and oscillating rods. *E3S Web of Conferences*, 2023. 401, P. 04029.
3. Каримов , А. А., & Кичкинаев, М. А. у. (2023). ПРИСАДКА ДЛЯ МОТОРНЫЕ МАСЛА. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 1021–1024. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2512>.
4. Karimov A.A. Parameters of the working body of root crops // Prospects for the introduction of innovative technologies in the development of agriculture: International conference: – Fergana, 2021. –B.208-213. doi:10.47100/conferences.v1i1.1335
5. Karimov, A. (2021, July). PARAMETERS OF THE WORKING BODY OF ROOT CROPS. In Конференции.
6. Karimov, A. (2023). PARAMETERS JUSTIFICATION OF THE IMPROVED POTATO DIGGER. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(18),

- 256–263. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1655>
7. Karimov, A. A., & Xoliqov, X. U. (2023). KORXONADA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHDA YO ‘L HARAKATINI TASHKIL ETISHNING ILMIY AHAMIYATI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(23), 278–284.
  8. Karimov , A. A., & Xoliqov , X. U. (2023). KORXONADA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHDA YO‘L HARAKATINI TASHKIL ETISHNING ILMIY AHAMIYATI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(23), 278–284. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1883>
  9. Karimov , A. A., & Zikriyoyev , S. U. o‘g‘li. (2023). YO‘L BELGILARINING HARAKAT XAVFSIZLIGI KO‘RSATGICHLARIGA TA’SIRI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(23), 504–511. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1917>
  10. Karimov, A. (2023). THEORETICAL JUSTIFICATION OF THE PARAMETERS OF AN IMPROVED POTATO DIGGER. *Innovatsion Texnologiyalar* , 51(03), 135–141. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/537>
  11. Karimov , A. A., & Zikriyoyev , S. U. o‘g‘li. (2023). QARSHI SHAHRI KO‘CHALARIDA HARAKAT XAVFSIZLIGINI ILMIY ASOSDA TADQIQ QILISH. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(22), 190–199. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1832>
  12. Mamatov, F., Karimov, A., & Shodmonov, G. (2023). Study on the parameters of bars of the potato digger ploughshare. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 434, p. 03012). EDP Sciences.
  13. Mamatov, F., Mirzaev, B., Karimov, A., Razzokov, T., Azizov, S., & Shodmonov, G. (2023). Potato digger with a digging workpart of the" Paraplaw" type. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 365, p. 04021). EDP Sciences.
  14. Karimov, A. A. (2023). INTELEKTUAL TIZIMLARNING HARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA’SIRINING AHAMIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(18), 181-184.
  15. Karimov, A. A. (2023). HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISHDA TELEMATIK TIZIMLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 70-73.